RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DAVLAT FUNKSIYALARINI MODERNIZATSIYA QILISH: ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING HUQUQIY VA AMALIY JIHATLARI

Shoyimqulov Oybek
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20032534

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida davlat funksiyalarining rivojlanish tendensiyalari hamda davlat boshqaruvi tizimida adliya organlari va uning tarkibiy tuzilmalarida joriy qilingan raqamlashtirilgan texnologiyalarning ish jarayonini soddalashtirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat funksiyalarining raqamlashtirilishi boshqaruv jarayonlarining yanada qulay hamda fuqarolarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xizmatlarning ixchamlashtirilganligi amaliy ko‘rib chiqiladi. Mazkur maqola davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini raqamlashtirish orqali davlat boshqaruv funksiyalarini modernizatsiyalashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va huquqni qo‘llash amaliyotida shaffoflik va hamda samaradorlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan. Davlat boshqaruvida funksiyalarni zamonaviy talablar asosida raqamlashtirish bevosita davlat xizmatlarining samaradorligini va fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, davlat organlarida korrupsion holatlarning oldini oladi, ortiqcha vaqt sarfini kamaytiradi, shuningdek, byurokratik rasmiyatchiliklar, qog‘ozbozliklarning oldini oladi. Ushbu maqolada adliya organlari tizimida joriy etilgan raqamli texnologiyalar, shuningdek, mamlakatimizda keng qo‘llanilayotgan boshqa turdagi huquqiy chatbotlarning qanchalik darajada zamon talablariga mosligi o‘rganiladi hamda ilg‘or xorij tajribasi(Gretsiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Finlandiya) bilan taqqoslagan holda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli xizmatlar, elektron hukumat, elektron markaz, raqamlashtirish strategiyasi, davlat xizmatlari, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik, BigData, ai.lex.uz.bot, Legal Tech, “smart office – aqlli adliya”, “e-shartnoma”, “e-qaror”, “e-notarius.

МОДЕРНИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФУНКЦИЙ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ: ПРАВОВЫЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ПРАВОСУДИЯ

Аннотация. В статье анализируются тенденции развития государственных функций в контексте цифровой трансформации и роль цифровых технологий, внедряемых в органы правосудия и их структурные подразделения, в оптимизации рабочих процессов. В исследовании рассматриваются практические последствия цифровизации государственных функций для повышения удобства управленческих процессов и компактности услуг, связанных с предоставлением услуг гражданам. Статья посвящена вопросам модернизации функций государственного управления посредством цифровизации деятельности государственных органов и организаций, повышения качества государственных услуг и обеспечения прозрачности и эффективности в правоохранительной практике. Цифровизация функций в государственном управлении на основе современных требований напрямую повышает эффективность государственных услуг и качество услуг гражданам, предотвращает коррупцию в государственных органах, сокращает ненужные временные затраты, а также предотвращает бюрократические формальности и волокиту. В данной статье рассматривается, в какой степени цифровые технологии, внедренные в систему правосудия, а также другие виды юридических чат-ботов, широко используемые в нашей стране, соответствуют требованиям времени, и

проводится их анализ в сравнении с передовым зарубежным опытом (Греция, Великобритания, Нидерланды и Финляндия).

Ключевые слова: цифровые услуги, электронное правительство, электронный центр, стратегия цифровизации, государственные услуги, открытость, прозрачность и подотчетность, BigData, ai.lex.uz.bot, Legal Tech, «умный офис – умное правосудие», «электронный договор», «электронное решение», «электронный нотариус».

MODERNIZATION OF STATE FUNCTIONS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION: LEGAL AND PRACTICAL ASPECTS OF DIGITIZING THE ACTIVITIES OF JUSTICE BODIES

Abstract. This article analyzes the development trends of state functions in the context of digital transformation and the role of digital technologies introduced in the justice bodies and their structural units in streamlining the workflow. The study examines the practical implications of digitizing state functions for making management processes more convenient and services related to providing services to citizens more compact. This article is devoted to the issues of modernizing state administration functions through digitizing the activities of state bodies and organizations, improving the quality of public services, and ensuring transparency and efficiency in law enforcement practice. Digitalization of functions in public administration based on modern requirements directly increases the efficiency of public services and the quality of services to citizens, prevents corruption in public bodies, reduces unnecessary time consumption, and also prevents bureaucratic formalities and red tape. This article examines the extent to which digital technologies introduced in the justice system, as well as other types of legal chatbots widely used in our country, meet the requirements of the times and analyzes them in comparison with advanced foreign experience (Greece, Great Britain, the Netherlands and Finland).

Keywords: digital services, e-government, e-center, digitalization strategy, public services, openness, transparency and accountability, BigData, ai.lex.uz.bot, Legal Tech, “smart office – smart justice”, “e-contract”, “e-decision”, “e-notary.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida tub o‘zgarishlarni keltirayotgan asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari global miqyosda davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish hamda fuqarolar bilan o‘zaro aloqani yanada qulay shaklda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron hukumat tizimlari va raqamli xizmatlarning joriy etilishi davlat organlari faoliyatini soddalashtirish, idoralararo axborot almashinuvini tezlashtirish hamda boshqaruv jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat organlarining funksiyalarini raqamlashtirish, ayniqsa, raqamli texnologiyalar orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali fuqarolarga turli xizmatlarni masofadan turib olish imkoniyatining yaratilishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi, zamonaviy shaklini vujudga keltirmoqda. Biroq raqamli transformatsiya jarayoni ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ma’lumki, davlat organlari, ayniqsa, vazirliklarda davlat boshqaruviga qaratilgan bir nechta funksiyalari mavjud. Davlat boshqaruvidagi funksiyalarning raqamlashtirilishi mutaxassislar malakasining yetarli darajada ta’minlanmaganligi, axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlaridagi murakkabliklar, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash masalalari hamda raqamli tafovut kabi omillar ushbu jarayon samaradorligini to‘liq ta’minlashga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruv organlarining funksiyalari tizimiga joriy

etish masalasi nafaqat texnik, balki tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Raqamlashtirish jarayonlari davlat organlari faoliyatini monitoring qilish va boshqarishning yangi mexanizmlarini shakllantirib, katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish hamda tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat siyosatini yanada asosli va samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Davlat organlari faoliyatlarini raqamlashtirish masalasi deyarli barcha organ va tashkilotlarning faoliyatlariga tatbiq etilmoqda. Bu masalaning mamlakatimizda jadal rivojlanishiga turki bo‘lgan omillardan biri sifatida 2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Elektron hukumat to‘g‘risida” gi Qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. Elektron hukumat bu - davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi.[1] “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi faoliyati mamlakatda davlat organlarini, aholi hamda tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi elektron hamkorlikni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Markaz davlat organlarida qo‘llaniladigan axborot resurslari va ma’lumotlar bazalarini yaratish, integratsiyalash hamda ularning o‘zaro uyg‘un ishlash mexanizmlarini shakllantirishda yagona texnologik yondashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, u elektron hukumat tizimini rivojlantirish jarayonida xalqaro tajriba va global tendensiyalarni o‘rganib, tahlil qiladi. Mazkur faoliyat natijasida davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatish ko‘lami kengaytirilib, aholi va tadbirkorlik subyektlariga qulay, tezkor hamda sifatli xizmatlar taqdim etish, shuningdek, yangi xizmatlarni raqamli formatga o‘tkazish orqali vaqt va resurslarni tejashga erishish ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni bilan tasdiqlangan strategik hujjat davlat boshqaruvi tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi.[2] Unda davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish nafaqat texnik yangilanish, balki boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan institutsional islohot sifatida talqin etiladi. Hujjat mazmuniga ko‘ra, davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyani amalga oshirish orqali boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish,qaror qabul qilish tizimini ma’lumotlarga asoslash, idoralararo axborot almashinuvini takomillashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish; shaffoflik va hisobdorlikni oshirish ko‘zda tutiladi. Shu jihatdan, mazkur farmon davlat organlarining an’anaviy funksiyalarini raqamli muhitga moslashning huquqiy asosini yaratadi. Strategiyada raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni avtomatlashtirish ko‘zda tutiladi. Bunda, real vaqt rejimida ma’lumotlar tahlili, statistik ko‘rsatkichlarni elektron yig‘ish, ijro intizomini nazorat qilish tizimlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Natijada davlat boshqaruvida ochiqlik va samaradorlik ta’minlanadi. Hujjatda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich elektron shaklga o‘tkazish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu yo‘l xizmatdan foydalanish qulayligini oshiradi, vaqt va xarajatlarni qisqartiradi hamda korrupsion holatlar kelib chiqishining oldini oladi. Shu tariqa davlat organlarining bevosita xizmat ko‘rsatish funksiyasi zamonaviy elektron platformalar orqali amalga oshiriladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyodagi barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Ertaga juda kech bo‘ladi. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng

joriy etish, natijadorlikni oshirishi, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilashi mumkin.”[3]

Davlat organlarini raqamlashtirish ularning samarali xizmat ko‘rsatish, kengayish va o‘zgarishlarga tezda moslashish qobiliyatini anglatadi. Raqamlashtirish, ayniqsa, adliya organlarining faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Adliya organlarini raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular mazkur organlarga yuklatilgan vazifalar va funksiyalardan kelib chiqadi. Bu, asosan, davlat xizmatlar, elektron hujjat aylanishi, ijro intizomi va boshqalarga tegishli. Adliya vazirligi va uning hududiy organlari hamda uning tarkibiy tuzilmasi hisoblangan Davlat xizmatlari markazlari davlat boshqaruvi tizimida jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatish ularning asosiy funksiya va vazifalaridan biri hisoblandi va shu sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organlar hisoblanadi. Ular davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni qisqartirish orqali takomillashtirish, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, mazkur sohada axborot tizimlari, resurslar va ma’lumotlar bazalarini joriy etish bo‘yicha davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va samaradorligini baholash vazifalarini amalga oshiradi. Davlat xizmatlarini samarali ta’minlash yo‘lidagi Gruziya Respublikasi tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, Gruziyada davlat boshqaruvi siyosatga ko‘ra, davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi muassasalar bilan kechadigan har qanday munosabatlar ma’lum ma’noda ma’muriy korrupsiyaga, vaqt va moliyaviy sarflarga olib keladi, fuqarolarning noroziligini keltirib chiqaradi va davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi degan fikrda qaraladi. Gruziyada olib borilayotgan davlat islohotlari avvalo korrupsiyaga qarshi kurash usullarini o‘zgartirishga yo‘naltirilganlik jihati bilan ahamiyatlidir. Bu borada Gruziyaning muvaffaqiyatli tajribasi davlat xizmatlarining aksariyatini “yagona darcha” tamoyili asosida “yagona makon” – “adliya uyi” orqali amalga oshirish yo‘lga qo‘yilganligidir. Mamlakatning 17 ta hududida joylashgan “Adliya uylari”da Gruziya notariuslar palatasi, Milliy Davlat ro‘yxatga olish agentligi, FHDYO agentligi, Milliy arxiv va Milliy ijroiya byurolari kiritilgan.[4] Mamlakatimizda amalda davlat xizmatlarini ta’minlashga qaratilgan my.gov.uz va adliya.uz portallarida alohida xizmatlar mavjud, ammo yagona integratsiyalashgan yuridik yordam platformasi mavjud emas. Shuningdek, murojaatlar statistikasi va samaradorligi ommaviy emas. Har bir mahalla fuqarolar yig‘inida davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va adliya organlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Huquqiy maslahat markazi”platformasini ochish orqali aholining huquqiy muammolarini joyida hal qilishga erishish mumkin. Ushbu platformalar orqali fuqarolar bepul yuridik maslahatlar, huquqiy hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatmalar va davlat organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar yozishda yordam olishlari mumkin bo‘ladi. Niderlandiyada “Huquqiy yordam stollari” va Finlandiyada “Huquqiy yordam idorasi” mexanizmi aholining doimiy muammolariga tezkor javob berishda katta ahamiyatga ega. Bu holda, fuqarolar yaqin atrofdagi hududda birlamchi huquqiy yordam olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Janubiy Koreyada esa “Smart Court System” yordamida fuqarolar uyidan chiqmasdan da’vo arizasini topshira oladi; Singapurda esa “e-Litigation” tizimi orqali advokatlar, sudyalar va davlat organlari yagona raqamli maydonda hamkorlik qiladi.[5] Xulosa qilib aytganda, adliya tizimida xizmatlarni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, hududiy tenglikni ta’minlash va sifatli xizmatlar ko‘rsatish tizimini shakllantirish bo‘lishi kerak. M.S.To‘xtayevning fikricha, “Yuridik xizmatlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish vositasi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Joylardagi hududiy adliya organlari o‘zlarining vazifalarida kelib chiqqan holda dastlabki yuridik yordamni tashkil qilishlari maqsadga muvofiqdir”. Gruziya tajribasi singari Yagona markazlashtirilgan platformada advokatlar, notariuslar, mediatorlar va davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi mansabdor shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ular haqida ma’lumotlarni ochiq

taqdim etish yuridik va boshqa davlat xizmatlarini ko‘rsatishda ochiqlik tamoyilini ta’minlaydi.[6]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19- maydagi PF-5997-son “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni asosida adliya organlarining 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.[7] Ushbu konsepsiya doirasida adliya organlarining davlat huquqiy siyosatini samarali amalga oshirish va sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalari ilgari surilgan. Ushbu konsepsiya raqamli adliya modeli adliya tizimi faoliyatini elektron platformalar orqali tashkil etish, huquqiy xizmatlarni soddalashtirish, davlat xizmatlarida shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash hamda fuqarolar uchun qulaylik yaratishga qaratilgan kompleks boshqaruv konsepsiyasi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekiston adliya tizimida “e-notarius”, “e-huquqshunos”, “e-qaror”, “smart office-aqlli adliya” kabi axborot tizimlari hamda mobil identifikatsiya vositalari joriy etilgan bo‘lsa-da, davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish jarayoni hali yakuniga yetkazilmagan. Amaliyotda ayrim tizimli kamchiliklar va integratsiya bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Hozirgi holatda, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida e-hukumat xizmatlarini 70% ga oshirishni rejalashtirilmoqda, ammo yagona integratsiya hali to‘liq emas, “my.gov.uz” da 675 dan ortiq xizmat mavjud bo‘lsa-da, ularning faqat 60% i to‘liq elektron hisoblanadi. Shu munosabat bilan boshqaruvning raqamli barqarorligini ta’minlash, axborot tizimlari o‘rtasida samarali integratsiyani yo‘lga qo‘yish, yagona identifikatsiya mexanizmini joriy etish, huquqiy targ‘ibot faoliyati uchun markaziy platforma yaratish hamda mavjud axborot tizimlarini modernizatsiya qilish zaruriyati dolzarb vazifa sifatida qayd etiladi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, aholiga sifatli va professional xizmat ko‘rsatadigan ixcham hamda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, deklarativ xarakterdagi vazifalarni qisqartirish, funksiyalarni amalga oshirishning aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilash, takrorlanishlarning oldini olish orqali budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, shuningdek, aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining roli va mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoni doirasida Adliya vazirligi faoliyati samaradorligini oshirish hamda sohani raqamlashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilangan. Mazkur, dasturga muvofiq, Adliya vazirligiga bir qator ustuvor vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ular jumlasiga “Legal-Tech” yo‘nalishini sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda rivojlantirish, “e-shartnoma” yagona elektron portalini yaratish, “smart justice – aqlli adliya” veb-portalini hamda mobil ilovasini ishlab chiqish, shuningdek, Face ID, Digital ID va Smart ID kabi mobil identifikatsiya tizimlarini takomillashtirish kiradi. Bundan tashqari, jismoniy shaxslar uchun shaxsiy identifikatsiya raqamidan, yuridik shaxslar uchun esa soliq to‘lovchi identifikatsiya raqamidan yagona login sifatida foydalanish tajribasini joriy etish orqali elektron xizmatlardan foydalanishni soddalashtirish nazarda tutilgan. Sun’iy intellekt yuridik hujjatlarni tahlil qilishda misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni ochib beradi. Masalan, Buyuk Britaniyada “Case Crunch” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot 11 ta tajribali yuristlardan ancha yuqori aniqlikda sud natijasini bashorat qilgan (86 foiz aniqlik bilan bashorat qilgan, huquqshunoslarning o‘rtacha ko‘rsatkichi esa 62,3 foizni tashkil etgan). Shu kabi tizimlarni O‘zbekistonda ham joriy etish – ayniqsa normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, shartnoma loyihalarini avtomatlashtirish, soliq yoki mehnat qonunchiligidagi da’volar bo‘yicha tezkor maslahat berishda – beqiyos imkoniyatlar yaratadi.
Shu kabi raqamlashtirilgan tizimlardan biri “ai.lex.uz” yoki “advice.uz” nomli chatbotlar yuristlar ishtirokisiz oddiy fuqaroga shikoyat arizasini to‘ldirishda yordam berishi mumkin.[8]

Adliya vazirligi o‘zining funksiyalarini raqamlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsadlarni “statik” (o‘zgarmas) sifatida qayd etmasdan,

hayotiy vaziyatlar va texnologik yutuqlardan kelib chiqqan holda “dinamik” (doimiy harakatda bo‘luvchi) sifatida amalga oshirmoqda. Adliya vazirligining “Raqamlashtirish strategiyasi” ni amaliyotga tatbiq etish orqali quyidagilarga erishiladi: aholiga va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarining muddati qisqartirilib, sifati oshiriladi, shuningdek, hukumat tomonidan xizmatlar hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, proaktiv tartibda taklif etiladi; Adliya vazirligi tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning ish samaradorligi oshirilib, tashabbuslar va ijodiy yondashuv asosida yangi loyihalarning joriy etilishiga erishiladi; fuqarolarning huquqiy savodxonligi oshirilib, har qanday kazusda tez va sifatli javob olish mexanizmi yaratiladi; vazirlikning “yagona raqamli arxitekturasi” yaratilib, vazirlik tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining raqamlashtirilganlik ko‘lami oshiriladi; katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) tizimlashtirilib, ularni “Data Science” texnologiyasi orqali tahlil qilish, kelajak ko‘rsatkichlarini prognozlash va sifatli ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish tizimiga o‘tiladi; ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifati oshirilib, shaffofligi ta’minlanadi; muhim jarayonlarda qaror qabul qilishda inson omiliga chek qo‘yilib, avtomatlashtiriladi.

TAKLIF ETILAYOTGAN HUQUQIY CHORALAR

Ushbu maqolada tahlil etilgan masalalar O‘zbekiston adliya organlari va davlat boshqaruvida raqamlashtirishni tezlashtirishga qaratilgan bo‘lib, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, shaffoflikni oshirish va fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashni maqsad qiladi va shu tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchi bosqich (2026-yil II choragigacha): Mavjud platformalarni (my.gov.uz, adliya.uz, advice.uz, “e-notarius”, “e-shartnoma”) yagona “Digital Justice” nomli platformaga integratsiya qilish. Bu platforma fuqarolarga bir joydan huquqiy maslahat olish, shartnomalarni elektron imzolar orqali tasdiqlash, sud jarayonlarini masofadan kuzatish va davlat xizmatlariga murojaat qilish imkonini beradi. Integratsiya uchun “API” lar va “blockchain” texnologiyalaridan foydalanib, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash (masalan, Face ID va Digital ID tizimlari orqali). Ushbu tajriba yuqorida tahlil qilib o‘tilgan Gruziya tajribasida keng foydalaniladi va davlat boshqaruvidagi ortiqcha yuklarni kamaytirishda ancha samarali yo‘l hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich (2026-yil IV choragigacha): Har bir mahalla va hududiy adliya organlarida “Huquqiy maslahat markazlari” platformasini hokimyat raqamli tizimi bilan bog‘lash, bu orqali hududdagi aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib shu hududdagi hokimliklar tezkorlik bilan vaziyatga yechim bera olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, murojaatlar statistikasini real vaqt rejimida ochiq e’lon qilish. Bu orqali korrupsiya holatlarini 30-50% ga kamaytirish mumkin, chunki barcha jarayonlar avtomatlashtiriladi va monitoring qilinadi. Shu bilan birga, axborot tizimlari o‘rtasida samarali integratsiyani ta’minlash, yagona raqamli platformalarni rivojlantirish, ma’lumotlar xavfsizligini kuchaytirish hamda mutaxassislarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar davlat boshqaruvida ochqilikni ta’minlash, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish tizimini yanda takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tahlildan ko‘rinadiki, raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi tizimiga, xususan adliya organlari faoliyatiga joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda shaffoflikni ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni, Prezidentning
PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek PF-5997 va PF-89-son farmonlari ushbu yo‘nalishning huquqiy asosini shakllantirdi.

Shu bilan birga, amaliyotda axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiyaning yetarli emasligi, ayrim xizmatlarning to‘liq elektron shaklga o‘tmaganligi, ma’lumotlar xavfsizligi hamda

kadrlarning raqamli ko‘nikmalari bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur holatlar davlat organlari funksiyalarini to‘liq va samarali raqamlashtirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu sababli davlat boshqaruvi va adliya tizimida yagona integratsiyalashgan raqamli platformalarni yaratish, xizmatlarni proaktiv shaklga o‘tkazish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, hududiy huquqiy maslahat markazlarini raqamli tizimlarga ulash hamda axborot xavfsizligini kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Natijada davlat organlari faoliyatining ochiqligi, hisobdorligi va tezkorligi oshadi, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati yaxshilanadi, korrupsion xavflar kamayadi va zamonaviy, ixcham hamda samarali davlat boshqaruvi tizimi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarova M.Z. “Elektron hukumat va interaktiv davlat xizmatlarini tashkil etish va ularni rivojlantirish” ilmiy maqola// “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali | 3-son.126-127-b.
2. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // *01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son.* https://lex.uz/docs/-5030957
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga yo‘llagan 2020-yil 24-yanvardagi Murojaatnomasidan. https://president.uz/oz/lists/view/3315
4. Sag‘dullayev U.A. “Xorijiy mamlakatlarda aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning ilg‘or tajribalari” // “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. -B.113.
5. Gafurova E.N. “Yurist axborotnomasi”. 5-son, 7-jild, 2025-yil // “Adliya organlari va muassasalari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”-B.16. https://www.uzmarkaz.uz/uploads/2025/11/yurist-5-son.pdf .
6. Abdugaffarov J. “Issues of improving the system of providing legal and other services in the justice system”.// Tashkent, June 2025. *International scientific and practical conference. Volume 2 | Issue 6.* https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/113289
7. “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi //*09.09.2025-y., 06/25/160/0812-son.* https://lex.uz/uz/docs/-4820060#-4820433
8. Yoqubjonov M.O. “Adliya – 2030”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Dimal” nashriyoti, 2025-y. -B.11-12.